



# QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI STATISTIKA BOSHQARMASI

## QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA QURILISH ISHLARI



**YANVAR-FEVRAL 2025**

**Dastlabki ma'lumot**

**\* Yashirin iqtisodiyotni hisobga olgan holda**

# Qoraqalpog'iston Respublikasi statistika boshqarmasi

2025- yilning yanvar-fevral oylarida, Qoraqalpog'iston Respublikasida jami **1 155,7** mlrd so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati **104,8 %** ni tashkil etdi.

**5,9 %**

Yirik qurilish  
tashkilotlari

**67,7**  
mlrd so'm

2024- yilning yanvar-  
fevral oylariga nisbatan

**131,2 %**

**56,0 %**

Kichik korxonalar  
va mikrofirmalar

**647,6**  
mlrd so'm

2024- yilning yanvar-  
fevral oylariga nisbatan

**103,0 %**

**38,1 %**

Norasmiy sektor

**440,4**  
mlrd so'm

2024- yilning yanvar-  
fevral oylariga nisbatan


**104,3 %**

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.

2025- yilning yanvar-fevral oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 67,7 mlrd so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari o'tgan yilning mos davriga nisbatan 131,2 % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 1,2 % punktga kamayib, 5,9 % ni tashkil etdi.

# Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari 2025- yil yanvar-fevral oylarida

## qurilish ishlari hajmi, mlrd so‘m



### Ma‘lumot uchun:

Respublika boyicha eng yuqori qurilish hajmini kórsatgan Nukus shahri 229,7 mlrd so‘m, o‘shish sur‘ati 101,9 %, To‘rtko‘l tumani 105,1 mlrd so‘m va o‘shish sur‘ati 101,3 %, Ellikqal‘a tumani 60,1 mlrd so‘m, o‘shish sur‘ati 109,6 %, Beruniy tumani 53,0 mlrd so‘m, o‘shish sur‘ati 103,7 %, Mo‘ynoq tumani 44,8 mlrd so‘m, o‘shish sur‘ati 100,7 % ni tashkil etdi.

\* Yashirin iqtisodiyotni hisobga olgan holda


## Qurilish ishlari, 2025- yil yanvar-fevral oyi uchun

	Qurilish ishlari, mlrd so'm	Shu jumladan:		
		Yirik qurilish tashkilotlari	Kichik korxonalar va mikrofirmalar	Norasmiy sektor
<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi *</b>	<b>1 155,7</b>	<b>67,7</b>	<b>647,6</b>	<b>440,4</b>
<b>Nukus sh. tumanlar:</b>	<b>229,7</b>	<b>2,4</b>	<b>205,3</b>	<b>22,0</b>
<b>Amudaryo</b>	<b>42,9</b>	<b>0,6</b>	<b>28,1</b>	<b>14,2</b>
<b>Beruniy</b>	<b>53,0</b>	<b>0,7</b>	<b>27,3</b>	<b>25,0</b>
<b>Bo'zotov</b>	<b>14,4</b>	<b>0,3</b>	<b>8,8</b>	<b>5,3</b>
<b>Qorao'zak</b>	<b>17,7</b>	<b>0,7</b>	<b>11,4</b>	<b>5,6</b>
<b>Kegeyli</b>	<b>11,3</b>	<b>-</b>	<b>6,6</b>	<b>4,7</b>
<b>Qo'ng'iro't</b>	<b>43,0</b>	<b>20,3</b>	<b>16,3</b>	<b>6,4</b>
<b>Qonliko'l</b>	<b>15,2</b>	<b>0,5</b>	<b>8,5</b>	<b>6,2</b>
<b>Mo'ynoq</b>	<b>44,8</b>	<b>12,1</b>	<b>27,7</b>	<b>5,0</b>
<b>Nukus</b>	<b>45,8</b>	<b>0,4</b>	<b>32,5</b>	<b>12,9</b>
<b>Taxiatosh</b>	<b>27,7</b>	<b>0,3</b>	<b>21,2</b>	<b>6,2</b>
<b>Taxtako'pir</b>	<b>17,5</b>	<b>0,4</b>	<b>12,2</b>	<b>4,9</b>
<b>To'rtko'l</b>	<b>105,1</b>	<b>1,5</b>	<b>78,1</b>	<b>25,5</b>
<b>Xo'jayli</b>	<b>32,9</b>	<b>0,3</b>	<b>22,3</b>	<b>10,3</b>
<b>Chimboy</b>	<b>28,4</b>	<b>0,5</b>	<b>9,8</b>	<b>18,1</b>
<b>Shumanay</b>	<b>9,4</b>	<b>0,8</b>	<b>3,6</b>	<b>5,0</b>
<b>Ellikqal'a</b>	<b>60,1</b>	<b>1,4</b>	<b>39,4</b>	<b>19,3</b>

2025- yilning yanvar-fevral oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 67,7 mlrd so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari o'tgan yilning mos davriga nisbatan 131,2 % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 1,2 % punktga ko'paydi va 5,9 % ni tashkil etdi.

\* Yashirin iqtisodiyotni hisobga olgan holda

## Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari



*Ma'lumot uchun:* Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Mo'ynoq tumani (tumandagi jami qurilish ishlari hajmining 27,0 % i yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 36,7 martaga ko'p), Qo'ng'iro't tumani (tumandagi jami qurilish ishlari hajmining 47,2 % i yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 257,9 %) tumaniga to'g'ri keldi.

## Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

2025- yilning yanvar-fevral oylarida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 56,0 % i to'g'ri kelib, 2024- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 1,3 % punktga kamaygan. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2024- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 103,0 % ni tashkil etgan holda 647,6 mlrd so'm miqdorida qayd etildi.

### Kichik korxonalar va mikrofirmalar, ulushi, % da



56,0

2025- yil  
yanvar-fevral

57,3


2024- yil  
yanvar-fevral



**Ma'lumot uchun:** Joriy hisobot davrida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori hajm ko'rsatkichi Nukus shahri (205,3 mlrd so'm yoki umumiy hajmga nisbatan ulushi 89,3 %), To'rtko'l tumani (78,1 mlrd so'm yoki 74,3 %) Ellikqal'a tumani (39,4 mlrd so'm yoki umumiy hajmga nisbatan ulushi 65,6 %), ga to'g'ri keldi.

## Qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor

Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi 38,1 % ni tashkil etdi yoki 440,4 mlrd so'm miqdorida qayd etildi. 2025- yilning yanvar-oylariga nisbatan 104,3 % ni tashkil etdi.



### Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, ulushi foizda

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami 11,9 mlrd so'm qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa 1 143,7 mlrd so'm qurilish ishlari bajarildi. Ularning respublikadagi ulushi mos ravishda 1,0 % va 99,0 % ni tashkil etdi.



# Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi 2025- yil yanvar-fevral oylarida

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining **77,7 %** i yoki **898,1** mlrd so‘m qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

Yirik qurilish tashkilotlari bo‘yicha yangi qurilish hisobidan 56,9 mlrd so‘mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 6,4 % ni tashkil etdi.

6,4 %

56,9  
mlrd so‘m

Kichik korxonalar va mikrofirmalar bo‘yicha yangi qurilish hisobidan 406,3 mlrd so‘m yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi 45,2 % ni tashkil etdi.

45,2 %


406,3  
mlrd so‘m

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi 434,9 mlrd so‘m yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 48,4 % ni tashkil etdi.

48,4 %


434,9  
mlrd so‘m

## Yillar bo‘yicha yangi qurilish hajmi va ulushi



## Respublikada iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi bino va inshootlarni qurishga 830,6 mlrd so'm, ulushi 71,9 % ni, fuqarolik obyektlarini qurishga 235,4 mlrd so'm, ulushi 20,4 % ni, ixtisoslashtirilgan qurilish ishlariga 89,6 mlrd so'm va ulushi ulushi 7,7 % ni tashkil etdi



*Ma'lumot uchun:* Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.

# Bino va inshootlar qurilishi

ulushi % da



Yirik qurilish tashkilotlari



Kichik korxonalar va mikrofirmalar



Norasmiy sektor

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 5,3 % ni tashkil etdi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush o'tgan yilning mos davriga nisbatan 6,6 % punktga kamayib, 41,7 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 53,0 % ni tashkil etdi.

# Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 8,3 % ni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 7,5 % punktga kamaydi.


Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 91,7 % ni tashkil etdi.

## ulushi % da



Yirik qurilish tashkilotlari

2024- yil  
yanvar-fevral



Kichik korxonalar va mikrofirmalar

2025- yil  
yanvar-fevral

# Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 7,1 % punktga kamaydi va 4,3 % ni tashkil etdi. Qolgan, 95,7 % i kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 7,1 % punktga ko'paydi.

